



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 4 (1603), 2026-yil 8-yanvar, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI VA FAXRIYLARIGA

Hurmatli soha xodimlari, muhtaram faxriylar! Sizlarni 8-yanvar — O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni bilan chin dildan tabriklayman.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori prokuratura organlari faoliyatida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Tizim xodimlari xalqqa yaqin bo‘lib, inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, qonun ustuvorligi va adolatni bevosita joylarning o‘zida ta‘minlay boshladi.

Ayniqsa, ular doimiy qabullar tashkil etib, fuqarolar muammolarini hal qilishda faol ishtirok etmoqda. Birgina o‘tgan yilda qariyb 512 ming nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 54 mingga yaqin murojaat, jumladan, salkam 29 ming nafar tadbirkorning masalasi yechib berilgani faoliyatingiz samarasini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Qurilish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, xotin-qizlar va yoshlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, yoqilg‘i-energetika va ekologiya yo‘nalishlarida, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etilgani ham ijobiy natija bermoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, yashirin iqtisodiyotga barham berish borasida ko‘rilgan choralar tufayli davlat budjetiga 22 trillion 300 milliard so‘m qo‘shimcha tushum undirilgani, qurilish sohasida

budjetdan 3 trillion 900 milliard so‘m ortiqcha xarajat qilishning oldi olinib, ushbu mablag‘lar qo‘shimcha ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etishga yo‘naltirilganini ta‘kidlash lozim.

Kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilish va tizimli profilaktika ishlari asosida mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, og‘ir toifadagi mahallalar sonini qariyb 1,5 barobar kamaytirishga erishildi.

Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o‘tgan davrda 10 mingdan ziyod huquqbuzarlik va jinoyatga chek qo‘yildi, davlat va jamiyat manfaatlariga yetkazilgan 1 trillion 800 milliard so‘m zarar undirildi, 13 mingdan ortiq shaxsning faoliyati legallashtirilib, ular tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Huquqni muhofaza qilish akademiyasida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti, shuningdek, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus tuzilma tashkil etilgani axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan xurujlarni aniqlash, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Hurmatli soha xodimlari! Procuratura idoralari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, tizimga ilmiy yondashuv va ish uslublarini izchil joriy etish, bilimli, tashabbuskor

va jonkuyar malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha bugun oldimizda dolzarb vazifalar turganini sizlar albatta yaxshi tushunasiz.

Jumladan, tergov jarayonlarini raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytirishda prokuratura organlarini ham nazorat idorasi, ham tergovchilarni tayyorlaydigan tizim sifatida yanada rivojlantirish bu — zamon talabi.

Mamlakatimizda korupsiyaga qarshi kurashish yangi bosqichga ko‘tarilayotgan hozirgi davrda prokurorlik faoliyatida ochiqlikni yanada kuchaytirish, sizlar xizmat qilayotgan tizimda va boshqa sohalarda ushbu illatga chek qo‘yishda har bir xodim namuna bo‘lishi kerak. Chunki el-yurtimiz prokuratura organlarining xizmatchilari timsolida qonun posbonlari va adolat himoyachilarini ko‘radi.

Sizlar bunday munosabatni qadrlab, xalqimiz ishonchini oqlash uchun bundan buyon ham sid-qiddildan mehnat qilasiz, deb ishonaman.

Barchangizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor qutlab, sizlarga mustahkam sog‘liq, g‘oyat mas‘uliyatli faoliyatingizda yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N I

PROKURATURA ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz prokuratura organlaridagi ko‘p yillik fidokorona mehnati, yurtimizda qonuniyligni va huquq-tartibotni mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatimizda huquqiy madaniyatni oshirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Kalonov Botir Xamzayeovich — O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi

“Mardlik” ordeni bilan

Yunusov Marat Erkinovich — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

“Do‘stlik” ordeni bilan

Razakova Gulchexra Narzullayevna — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2026-yil 7-yanvar

huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Toshkent shahar boshqarmasi katta inspektori

“Jasorat” medali bilan

Zaripov Jamshid Baxodirovich — Jizzax viloyati prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i

Maxmudov Murodbek Madiyorovich — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi mas‘ul xodimi

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Axmedov Baxridin Tojiyevich — Navoiy ixtisoslashtirilgan prokurori o‘rinbosari

Raximov Ural Tashbulovich — Samarqand viloyati Toyloq tumani prokurorining katta yordamchisi
Yunusov Baxodir Xolliyarovich — Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani prokurori

“Shuhrat” medali bilan

Gaibbayeva Nigina Tayirjonovna — Namangan viloyati prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i
Qobulov Dilmurod Qobulovich — Sirdaryo viloyati prokurori o‘rinbosari

SH. MIRZIYOYEV



Jahon iqtisodiyoti so‘nggi o‘n yillikda chuqur transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Geosiyosiy keskinlik, global qiymat zanjirlarining qayta konfiguratsiyasi, proteksionizmning qayta tiklanishi va texnologik suverenitetga intilish sharoitida davlatlar uchun xalqaro savdo tizimidagi institutsional maqom yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, **Jahon savdo tashkilotiga (JST) qo‘shilish jarayoni oddiy tashqi savdo siyosati islohoti emas, balki mamlakatimizning butun iqtisodiy modeli, davlat-biznes munosabatlari va global iqtisodiy makondagi o‘rni qayta belgilab beruvchi strategik qaror sifatida namoyon bo‘lmoqda.**



2025-yil mamlakatimizning JSTga qo‘shilish tarixida sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqich sifatida alohida ajralib turadi. Bu yil avvalgi davrlarda to‘plangan muzokara tajribasi, institutsional bilim va siyosiy iroda aniq, o‘lchanadigan va xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinadigan natijalarga aylandi. Muhim jihati, JSTga a‘zolik “imtiyoz” yoki “marhamat” sifatida emas, balki qoidalarga asoslangan, o‘zaro manfaatli (win-win) hamkorlik mexanizmi sifatida

qabul qilinmoqda. Bu yondashuv mamlakatimizning muzokaralardagi pozitsiyasi, qonunchilik islohotlarining ko‘lami va siyosiy ritorikasida yaqqol aks etmoqda.

JSTga a‘zo bo‘lish har qanday rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun ikki tomonlama ta‘sirga ega jarayon. Bir tomondan, u tashqi bozorlarga barqaror va prognoz qilinadigan kirish imkoniyatini ta‘minlaydi, investitsion

muhitni yaxshilaydi va milliy eksportchilar uchun diskriminatsiya xavfini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan esa ichki bozor raqobatining kuchayishi, davlat qo‘llab-quvvatlash instrumentlarining cheklanishi va institutsional islohotlar bilan bog‘liq adaptatsiya xarajatlari keltirib chiqaradi.

► **Davomi 3-betda**

QAMROV KENGAYIB, MAS‘ULIYAT ORTMOQDA Oliy ta‘limdagi islohotlar samarasi

Bugun O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi oddiy institutsional islohot doirasidan chiqib, jamiyatning intellektual, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini belgilab beruvchi strategik omilga aylandi. 2025-yil ana shu jarayonning mantiqiy davomi sifatida oliy ta‘limdagi o‘zgarishlarning miqdoriy kengayishdan sifat jihatidan takomillashuvga yo‘nalgan yangi bosqichini yaqqol namoyon etdi.

So‘nggi yillarda oliygohlar soni deyarli uch barobar oshib, 2025-yilda 207 taga yetdi. Talabalar soni esa 1,7 millionni tashkil qildi. Bu raqamlar ortida faqat statistik o‘sinh emas, balki jamiyatda bilimga ehtiyoj o‘sib borayotgani, oliy ta‘limning ijtimoiy mobillik va shaxsiy kamolot omili sifatida angliyanayotgani mujassam.

Tizimning kengayishi infratuzilmaviy asoslar bilan mustahkamlandi. Yangi oliy ta‘lim muassasalari, o‘quv binolari, talabalar turar joylari va zamonaviy laboratoriyalar barpo etildi. Eng muhimi, o‘qitish mazmuni o‘zgardi. Miqdoriy o‘sinh sifatini oshirish orqali ta‘minlandi. Barcha oliy ta‘lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy etilishi, o‘quv dasturlarining xalqaro universitetlar tajribasi asosida qayta ko‘rib chiqilishi oliy ta‘limni zamonaviy bilim iqtisodiyoti talablariga moslashtirdi. O‘qitish sifatini baholash, shaffoflik va

akademik mas‘uliyat tamoyillari tizimning ichki me‘yoriga aylana boshladi.

Shu ma‘noda, ortda qolgan yil O‘zbekiston oliy ta‘limi tarixida shunchaki navbatdagi islohot yili emas, balki maqsad va mazmuni aniq belgilab olish davri sifatida ahamiyat kasb etdi.

Bitiruvchi — mehnat bozori uchun muhim subyektt

Zamonaviy ta‘lim tizimi samarasi faqat o‘tilgan dars soatlari yoki berilgan diplomlar bilan emas, balki yosh mutaxassisning mehnat bozorida o‘z o‘mini topa olishi bilan o‘lchanadi. Shu ma‘noda, 2025-yil O‘zbekiston oliy ta‘limida “ta‘lim — ish — kasbiy barqarorlik” zanjirini shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi.

► **Davomi 5-betda**

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni



VATAN MUHABBATI burch va sadoqatni haqiqiy mudofaa kuchiga aylantiradi

Sanoqli kunlardan keyin O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi keng nishonlanadi. Davlatimiz rahbari parlament va yurtdoshlarimizga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatimiz taraqqiyoti bilan bog‘liq katta maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berar ekan, “Bunday ulug‘vor vazifalar bizdan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do‘stlik va ahillikni yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini oshirishni talab etadi”, dedi.

► **Davomi 2-betda**



2026-yil 8-yanvar, 4-son

Nuqtayi nazar

“

Milliy qonunchilikka esa “Bolaning eng ustun manfaatlari” tushunchasini kiritish orqali bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy asoslar takomillashtirilyapti.



OILALAR TOTUV BO‘LSA, JAMIYAT MUSTAHKAM BO‘LADI

Tarix va hozirgi zamon nuqtayi nazaridan juda qisqa, o‘z navbatida, murakkab davr — keyingi to‘qqiz yilda katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdik. O‘zbekiston Prezidentining parlament va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida qayd etilganidek, iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarini, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Asosiysi, yangi O‘zbekistonnı barpo etish yo‘lidagi islohotlar samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.



Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Darhaqiqat, mamlakatimizda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” degan tamoyil hayotga izchil tatbiq etilmoqdaki, bundan hech bir yurtdoshimiz chetda qolmayapti. Bu tamoyil, avvalo, jamiyatning eng zaif qatlamini hisoblangan xotin-qizlar va bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda o‘z ifodasini topayotir. Chunki ayollar va bolalar huquqlari ta‘minlanmagan jamiyatda adolat, barqarorlik va taraqqiyot haqida so‘z yuritish mumkin emas. Shu bois, mamlakatimizda inson huquq

va manfaatlarini ta‘minlash, xususan, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning har qanday holatlariga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Bu borada qabul qilingan tizimli chora-tadbirlar va qonunchilikdagi qat‘iy o‘zgarishlar nafaqat jabrlanuvchilarni huquqiy himoya qilish, ayni damda jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, hayotimizda uchrayotgan ayrim achchiq haqiqatlar bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirishni taqozo etyapti. Chunki keyingi paytlarda kuzatilayotgan oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlari, ayollar va bolalar huquqlarining poymol etilishi hamon og‘riqli nuqtamiz bo‘lib qolayotgani sir emas.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisida birinchi o‘qishda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunhujjatlariga tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda bolaning eng ustun manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bu kabi muammolarga barham berishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Buning zamirida ayolning qadr-qimmatini tiklash, bolaning baxtli ulg‘ayishi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-huquqiy qalqonni yaratish g‘oyasi mujassam.

Binobarin, ushbu qonun loyihasi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda

ayollarni reabilitatsiya qilish markazlariga zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar manfaatlarini ko‘zlab sudlarga davlat boji to‘lamasdan murojaat qilish va sud majlislarida ularning vakili sifatida ishtirok etish huquqi berilishi nazarda tutilmoqda. Milliy qonunchilikka esa “Bolaning eng ustun manfaatlari” tushunchasini kiritish orqali bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy asoslar takomillashtirilyapti.

Ma‘lumki, ilgari tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan ayollar huquqlarini himoya qilishda bir qator iqtisodiy va byurokratik to‘siqlar mavjud edi. Jabrlanuvchi ayol o‘z haq-huquqini talab qilib sudga da‘vo kiritishi uchun advokat yollashi yoki yurist xizmatidan foydalanishi lozim edi. Aksariyat hollarda zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan ayollar iqtisodiy jihatdan o‘ziga zulm o‘tkazayotgan shaxsga — eri yoki qarindoshiga qaram bo‘lib, huquqiy xizmatlar uchun yetarli mablag‘ topolmasdi.

Endilikda Ijtimoiy himoya milliy agentligi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning haqiqiy suyanchiga aylanmoqda. Yangi tartibga ko‘ra, agentlikka quyidagi muhim vakolatlar berilmoqda.

Birinchidan, agentlik jabrlanuvchi ayollar manfaati uchun sudlarga hech qanday davlat boji to‘lamasdan ariza, shikoyat va da‘volar kiritga oladi.

Ikkinchidan, sud majlislarida agentlikning malakali mutaxassislari jabrlanuvchining vakili sifatida bevosita ishtirok etadi.

Bu degani endi tazyiqqa uchragan ayol “Davlat boji to‘lashga pulim yo‘q” yoki “Yuristsiz menga kim yordam beradi?”, deya ikkilanib qolmaydi. Davlat ayolning nafaqat xavfsizligini, balki sud oldida uning bepul va sifatlı himoya qilinishini ham o‘z zimmasiga olmoqda. Bu jamiyatda adolat qaror topishi va hech bir zo‘ravonlik jazosiz qolmasligi yo‘lidagi eng katta to‘siqni olib tashlaydi.

Qonun loyihasidagi yana bir muhim yangilik — jabrlanuvchi ayollarning ijtimoiy

va iqtisodiy huquqlarini to‘liq kafolatlash bilan bog‘liq. Endilikda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayol maxsus markazlarda (reabilitatsiya markazlarida) davolanayotgan yoki ruhiy ko‘mak olayotgan vaqtda uning ish joyi va egallab turgan lavozimi saqlab qolinadi. Bu juda katta imtiyoz. Sababi ilgari ayollar “Agar tegishli markazga borsam, ishimdan ayrilib qolaman, keyin bolalarimni qanday boqaman?” degan xavotir bilan zo‘ravonlikka chidab kelgan. Endi esa qonun ayolga “Siz avval o‘z salomatligingizni tiklang, ishingiz va daromadgingiz joyida turadi”, deb kafolat bermoqda.

Qonun loyihasining eng katta yutuqlaridan biri — “Bolaning eng ustun manfaatlari” tamoyilining kiritilishidir. Bu nima degani? Ko‘p hollarda oiladagi nizolar yoki ajrimlar paytida bolaning taqdiri kattalarning xohish-istaklari yoki o‘zaro adovatlari soyasida qolib ketardi. Endilikda davlat organlari, sudlar va mansabdor shaxslar bola bilan bog‘liq har qanday masalani ko‘rib chiqayotganda, eng avvalo, “Bola uchun qaysi qaror eng foydali va xavfsiz?” degan savolga javob izlaydi. Bu tamoyilning kiritilishi bolalarimizni har qanday ma‘naviy va jismoniy xavflardan himoya qiluvchi mustahkam huquqiy qalqondir. Zero, jamiyatning ertangi kuni bolaning bugun qanday muhitda ulg‘ayayotganiga bevosita bog‘liq.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi bilan har bir ayol va bola davlatning haqiqiy himoyasida ekanligini his qiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy masala — oilalarda o‘zaro hurmat va mehr muhitini tiklash, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga yetmagan farzandlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashdir. Zotan, ayol e‘zozlangan, bolalari shod bo‘lgan yurtda baraka va yuksalish bo‘ladi.



14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

VATAN MUHABBATI
burch va sadoqatni haqiqiy mudofaa kuchiga aylantiradi

Shuhrat HOTAMOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
polkovnik

Boshlanishi 1-betda

Boshlanishi 1-betda

Yuksalish, taraqqiy etishning eng birlamchi zarurati tinchlikdir. Tinchlik, osudalik yo‘q joyda rivojlanish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Buni hozir dunyoning turli burchaklarida davom etayotgan o‘zaro mojarolar, qurolli to‘qnashuvlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Shu ma‘noda, 2017-2025-yillar O‘zbekiston Qurolli Kuchlari uchun zamon talablariga mos taraqqiy etib, zamonaviy armiya nuqtayi nazaridan rivojlanishning yangi, tarixiy bosqichiga ko‘tarilish davri bo‘lganini ta‘kidlash joiz.

Ushbu yillarda harbiy sohada keng ko‘lamli modernizatsiya amalga oshirildi: qo‘shinlar zamonaviy qurol-yarog‘, jangovar texnika, o‘q-dorilar, kommunikatsiya va kuzatuv vositalari bilan jihozlandi. Harbiy aviatsiyada yangi turdagi vertolyot va samolyotlar o‘zlashtirildi, havo mudofaasi tizimiga zamonaviy zenit-raketa majmualari joriy etildi. Poligonlarda real jangovar sharoitga yaqin mashqlar, qo‘shin turlari o‘rtasida hamkorlikdagi operatsiyalar, taktik va strategik o‘quvlar muntazam o‘tkazila boshladi.

Bugungi O‘zbekiston armiyasining harakatlanish tezligi, aniqligi, intizimi va texnologik salohiyati aynan shu izchil modernizatsiya siyosatining bevosita natijasidir. Yangi texnikalar, raqamli boshqaruv tizimlari, hamkorlikda ishlovchi qo‘shin turlari va malakali harbiy kadrlar armiyani mintaqamizdagi eng ishonchli va jadal rivojlanayotgan mudofaa tizimlaridan biriga aylantirdi.

Xalq — yagona maqsad va g‘oya atrofida birlashgan ulkan kuch. Askarning eng katta tayanchi ham xalqimizning ishonchi va duosidir. Xalq va armiya birligi O‘zbekiston mudofaa tizimining eng muhim mezonlaridan. Bugun harbiy xizmatchilar kundalik xizmat jarayonidan tortib, dala-o‘quv mashg‘ulotlarigacha bo‘lgan barcha bosqichda aynan mana shu tamoyilga taynadi.

So‘nggi yillarda harbiy bo‘linmalarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimi tubdan takomillashtirildi. Harbiy psixologlar faoliyati kengaytirildi, bo‘linmalarda psixologik barqarorlikni mustahkamlash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar muntazam o‘tkazilmogda. Shuningdek, harbiy xizmatchilar uchun huquqiy savodxonlik darslari, bo‘linma komandirlari bilan ma‘naviy-ma‘rifiy suhbatlar, yosh askarlar uchun moslashuv davri bo‘yicha psixologik treninqlar, oilaviy masalalar bo‘yicha psixologik maslahatlar keng yo‘lga qo‘yildi.

Mana shunday ma‘naviy tayanch va ruhiy barqarorlik harbiy xizmatining jangovar tayyorgarligi bilan bir qatorda ariyaning umumiy salohiyatini oshiradigan muhim omildir. Askarning qalbidagi Vatanga muhabbat, zimmasidagi mas‘uliyat va sadoqat uni haqiqiy mudofaa kuchiga aylantiradi.

Eng muhimi, Qurolli Kuchlarimiz bugun nafaqat yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi tayanchi, balki o‘zbek xalqi vatanparvarligi, birligi va qudratining haqiqiy ramziga aylandi.

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining roli va ahamiyati ortib bormogda.

O‘z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday

qudratli qurolga ega bo‘lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi”.

Harbiy yo‘nalishdagi o‘qituvchilarning asosiy vazifasi ham Vatanni jonidan sevuvihi, uning ravnaqi va tinchligi uchun elim, yurtim deb yonib yashaydigan mard o‘g‘lonlar, o‘zbek vatanparvarlarini tarbiyalab, voyaga yetkazishdir. Bu tarbiya, albatta, axloqiy, mehnat, estetik, siyosiy hamda jismoniy turlar bilan uzviy bog‘liqlikda olib borilishi kerak. Tarbiya turlari orasida harbiy-vatanparvarlik muhim o‘rin egallaydi.

O‘tgan yillarda milliy armiyamizni isloh qilish, Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi va dislokatsiya tizimini takomillashtirish, qo‘shinlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnikalar bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va shayligi, kasbiy mahoratini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘tgan davrda bo‘linmalarning texnik va zaxira ta‘minoti tizimi tubdan qayta ko‘rib chiqildi, aurosoring xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi yo‘lga qo‘yildi. Mudofaa sanoati majmuasi korxonalari faol rivojlanitirilmogda, ayrim turdagi qurol-yarog‘ va texnika turlarini ishlab chiqarish hamda modernizatsiya qilishni mahalliyashtirish jarayoni boshlandi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tayyorlashga alohida e‘tibor qaratildi. Xususan, “Jasorat maktablari”dagi o‘quv yig‘inlari 5000 dan ziyod yosh jalb qilindi.

Harbiy xizmatchilar va oila a‘zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi. Qilingan ishlar natijasida qo‘shinlarning tayyorgarligi samaradorligi, harbiy xizmatchilarning professionalligi, jangovar ruhi va psixologik shayligi sezilarli darajada oshdi. Harbiy oliy ta‘lim muassasalari faoliyatida harbiy kadrlarni ilg‘or texnologiyalar asosida tayyorlash bo‘yicha yangi tizim joriy qilindi.

Bundan tashqari, sohani raqamlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi. Qo‘shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmogda.

Jahondagi murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida qator ustuvor vazifalar belgilangan. Xususan, Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilimi va ko‘nikmasini oshirish, qo‘shinlarning jangovar ruhi va salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, o‘quv jarayoniga harbiy tayyorgarlikning zamonaviy usullarini keng joriy etish shular jumlasidan.

Bularning har biri alohida ahamiyatga ega. Masalan, chagriqroq qadar boshlang‘ich tayyorgarlik mashg‘ulotlari, harbiy-vatanparvarlik va ommaviy mudofaa tadbirlarida o‘quvchi-yoshlar Qurolli Kuchlarimiz saflaridagi bo‘lajak xizmatlari va Vatanimiz himoyasi uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakani o‘zlashtiradi. Ular bu mashg‘ulotlar va tadbirlarda harbiy ish hamda xizmat asoslariga doir dastlabki ma‘lumotlarni oladi. Qurolli Kuchlarimiz tarixi, bugungi faoliyati va salohiyati, qo‘shin turlari, ularning vazifalari, xizmat qilish tartibiga doir zarur bilimlarni o‘zlashtiradi.

Bugun sohadagi islohotlar doirasida harbiy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish hamda zamon talablariga mos oliy harbiy ta‘lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida tizimli ishlar bajarilmogda. Mamlakatimizda qo‘mondonlik va texnik kadrlar tayyorlaydigan, bir necha o‘quv muassasalarini birlashtirgan bo‘linma bosqichli harbiy ta‘lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Jamoat xavfsizligi universitetining tashkil etilishi hisobiga mazkur sohada malakali ofiser kadrlar tayyorlanayotgani fikrimiz tasdig‘idir.

Ta‘lim-tarbiya masalasi har bir davlat uchun muhim vazifa. Rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasi jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan har bir islohot aynan ta‘lim tizimidan boshlanganini ko‘rsatadi. Vatanparvarlik tarbiyasi poydevori esa harbiy ta‘lim muassasalarida qo‘yiladi. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarni ana shu jarayonga jalb qilish, ular ongiga O‘zbekiston kelajagi aynan yoshlar qo‘lida ekanini singdirish, kundalik mashg‘ulotlar, turli tadbirlar davomida ularni vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ularini yanada mustahkamlashdir.

Munosabat

BAXTLI HAYOT YO‘L XARITASI

Prezidentimizning Murojaatnomasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar xalqimiz farovonligini oshirish, iqtisodiy barqarorlikka erishish, umuman, yurtimiz manfaati uchun xizmat qiladi. Zero, unda davlat va jamiyatni keng qamrovli isloh qilish yuzasidan barcha sohani yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha strategik g‘oyalari, ularni amalga oshirish uchun aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shu bois, uni baxtli hayot yo‘l xaritasi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Davlatimiz rahbari 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlashni taklif qildi. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahallalarga aholining kundalik muammolarini hal qilish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatlarini berish, buning uchun tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar yaratish belgilangan. Bu esa davlat hokimiyatida hisobdorlik, shaffoflik, samarali qaror qabul qilish va uning natijadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Nufuzli anjumanda Prezidentimiz barcha soha qatori qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish masalalariga alohida to‘xtaldi. Odil sudlov jarayonini “raqamli sud” konsepsiyasi asosida tashkil etish boshlangani, endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasi kuchaytirilishi, bu jarayonda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan ishini sudga o‘tkazishgacha bo‘lgan bosqichlarga sun‘iy intellekt texnologiyalari joriy etilishi hamda inson omili ishtiroki qisqartirilishi ma‘lum qilindi. Bu juda muhim va zarur yangilanish bo‘ladi. Chunki ayni o‘zgarish korruptsiyaning oldini olish, fuqarolar va tadbirkorlarning tergov jarayoni haqida ovoragarchiliksiz, tezkor ma‘lumot olishiga imkon beradi.

Bundan tashqari, “Xabees korpus” institutini qo‘llashning navbatdagi muhim bosqichi — tergov sudyalarga 2026-yildan sanksiya va majburiy choralarini o‘zgartirish hamda bekor qilish vakolatlari berilishi ham sudga qadar ish yuritish bosqichida shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini amalga oshirish yo‘lida muhim qadam bo‘ladi.

Qonunchiligimizda jinoyat ishi bo‘yicha tergov olib borish va ishini sudda ko‘rish chog‘ida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jinoyat sodir etilgan holatlarni aniqlash, aybdorlarni qidirish va fosh etish, adolati hukm chiqarish, shuningdek, jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlash uchun o‘z vakolatlari doirasida jamoatchilik yordamidan foydalanishga haqli



Shahzod BAXTIYOROV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Dehqonobod tumani sudi raisi

iste‘mol qilishi natijasida shaxsning muomala layoqatining cheklanishi, uning oqibatida esa hatto o‘z mol-mulkini tasarruf etish huquqidan mosuvo bo‘lishi, obro‘si va sha‘niga putur yetishi ayni haqiqat.

Albatta, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar imkoniyatlardan foydalanib bu kabi jinoyatlarni fosh qilish va aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga qaratilgan qator ishlarni bajarmogda. Lekin bu turdagi jinoyatlarni faqat jazolash yoki boshqa ma‘muriy taqiy qo‘li va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning kuchi bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Bu sa‘y-harakatlar aholining ijtimoiy faolligi, huquqiy ongi va madaniyatini oshirish bilan uyg‘un

holda olib borilgandagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Keyingi muhim masala xotin-qizlar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga bag‘ishlandi. Butun borlig‘ini farzandlari kamoliga baxshida etgan onalarimiz hamda turli sohalarda erkaklar qatorida ter to‘kib, halol mehnat qilayotgan opa-singillarimiz timsolida xonadonimiz chirog‘i, oilamiz tayanchi va yurtimiz istiqbolining kafolatini ko‘ramiz.

Shuningdek, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda sohaning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi bor bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali barcha sohadagi islohotlarning samarasini ko‘rish mumkin.

Shu sababli Prezidentimiz ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha respublika muvofiqashtiruvchi kengashiga barcha davlat idoralari va keng jamoatchilikni safarbar qilgan holda bunday salbiy holatlarga barham berish bo‘yicha samarali ishlaydigan tizim yaratish topshirig‘ini berdi.

Bundan tashqari, korruptsiyaga qarshi kurashga ham alohida e‘tibor qaratilib, bu illat haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratishga, rivojlanishga g‘ov bo‘lishi ta‘kidlandi. Prezidentimiz kompaniyas va korruptsiyaga qarshi ichki nazoratni kuchaytirish, barcha idoralarda kompaniyas va korruptsiyaga qarshi ichki nazoratga mas‘ul o‘rinbosar lavozimlari joriy etish haqida taklif kiritdi.

Umuman, Murojaatnomada nafaqat 2026-yil, balki undan keyingi yillarda ham amalga oshirilishi lozim bo‘lgan konsepsiyalar, dasturlar, strategiyalar haqida aniq takliflar bildirildi.

Murojaatnomada belgilangan vazifalar bajarilishi, hech shubhasiz, shu tabarruk zaminda istiqomat qilayotgan har bir insonning orzularini ro‘yobga chiqarish hamda uning uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish, davlatimizning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga asos bo‘ladi. Har birimiz bu borada zimmasimizdagi ulkan mas‘uliyatni to‘la his etib, shu ezu maqsadlarga xizmat qilishni faoliyatimizning asosiy mezoniga aylantirsak, daxldorlik hissi bilan mehnat qilsak, albatta, o‘z oldimizga qo‘ygan ulkan maqsadlarga erishamiz.

O‘ZBEKISTON VA JST:

TARIXIY
A‘ZOLIK
OSTONASIDA

Tahlil

Nodir JUMAYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

“Agar 2025-yil JSTga qo‘shilish jarayonida siyosiy va texnik burilish yili bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil ushbu jarayonni huquqiy va institutsional jihatdan yakunlash yili sifatida tarixga kirishi mumkin.

Odiljon IMINOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

JSTga qo‘shilish iqtisodiyotni xomashyo eksportiga bog‘liqlikdan xalos etish, sanoat va xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirish, xorijiy investitsiyalar uchun institutsional kafolatlarni mustahkamlash, tashqi savdo siyosatida shaffoflikni ta‘minlash kabi strategik maqsadlar bilan uzviy bog‘liq. 2025-yilga kelib, mazkur maqsadlar deklarativ emas, balki normativ-huquqiy va muzokaraviy jihatdan aniq konturlarga ega bo‘la boshladi.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, JSTga qo‘shilish jarayonlari ko‘p hollarda yillab davom etadi, ayrim mamlakatlar uchun esa siyosiy yoki institutsional sabablarga ko‘ra to‘xtab qoladi. O‘tgan yil biz uchun ana shu xavflarni minimallashtirgan, jarayonni “qaytarib bo‘lmas nuqta”ga olib chiqqan yil bo‘ldi.

2025-yilning o‘ziga xosligi muzokaralar intensivligining keskin oshishi, Qonunchilik islohotlarining tizimli xarakter kasb etishi, eng yuqori siyosiy darajada ochiq qo‘llab-quvvatlash, texnik salohiyatning oshishi kabi omillar bilan izohlanadi.

Ortga qolgan yilda amalga oshirilgan ishlar natijasi empirik ko‘rsatkichlar bilan ham tasdiqlanadi: o‘nlab muzokara raundlari, yuzlab yozma savollar, mingdan ortiq normativ hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish va o‘ttizdan ziyod qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi.

JSTga qo‘shilish jarayoni faqat texnik majburiyatlar yig‘indisi emas, balki mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy obro‘sig a berilgan bahodir. 2025-yilda yurtimizga nisbatan xalqaro hamjamiyatning munosabatida sezilarli siljish kuzatildi. Bu, avvalo, yirik savdo hamkorlari — Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Buyuk Britaniya, Rossiya, Kanada va Avstraliya bilan ikki tomonlama kelishuvlarning yakunlanishi orqali namoyon bo‘ldi.

Bu davlatlar JST doirasida eng talabchan va tajribali muzokarachi sifatida tan olinadi. Ular bilan kelishuvga erishish bizning nafaqat siyosiy xohishimizni, balki institutsional tayyorgarligimizni ham tasdiqladi. Shu bilan birga, Jeneva va Nyu-Yorkdagi yuqori darajadagi muloqotlar, xalqaro anjumanlar va Prezident Administrasiyasi rahbarining JST markaziga rasmiy tashrifi jarayonga qo‘shimcha siyosiy legitimlik berdi. Xalqaro amaliyotda bu kabi tashriflar muzokaralarni tezlashtiruvchi “siyosiy signal” sifatida qabul qilindi.

Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayonida ikki tomonlama bozorga kirish muzokaralari (bilateral market access negotiations) nomzod mamlakat uchun eng murakkab va siyosiy jihatdan sezgir bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu muzokaralar doirasida a‘zo davlatlar nomzod mamlakatdan tariflar, xizmatlar bozori, investitsiya rejimi va ayrim hollarda eksport bojlari bo‘yicha aniq va o‘lchanadigan majburiyatlar talab qiladi.

Yakunlangan yilda O‘zbekiston aynan shu frontda sifat jihatidan katta yutuqga erishdi. 34 ta manfaatdor JST a‘zosi dan 33 tasi bilan ikki tomonlama kelishuvlarni yakunlash — xalqaro amaliyot nuqtayi nazaridan juda yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Ko‘plab mamlakatlar uchun bu jarayon o‘n yillab cho‘zilgani, ba‘zilari esa siyosiy sabablarga ko‘ra muzokaralarni to‘liq yakunlay olmaganini ma‘lum.

O‘zbekiston holatida esa ikki muhim jihatni alohida ta‘kidlash mumkin. Birinchisi, muzokaralar intensiv va tizimli xarakter kasb etgan bo‘lsa, ikkinchisi, kelishuvlar turli iqtisodiy modelga ega davlatlar bilan imzolandi. Bu esa O‘zbekiston taklif etgan bozorga kirish shartlari universal va muvozanatli ekanini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Shveysariya va Avstraliya kabi yirik iqtisodiyotlar bilan ikki tomonlama kelishuvlarning yakunlanishi tasodifiy emas. Bu davlatlar, odatda, JSTga qo‘shilayotgan mamlakatlardan yuqori standartlarni talab qiladi va texnik jihatdan juda detallashtirgan muzokaralar olib beradi.

Mazkur kelishuvlarning ahamiyatini quyidagi uch o‘lchovda baholash mumkin:

Birinchisi, tarif majburiyatlari bo‘lib, O‘zbekiston tovarlar bo‘yicha tarif jadvallari shakllantirishda bosqichma-bosqich liberalashning tamoyilini qo‘lladi. Bu ichki ishlab chiqaruvchilar uchun “shok terapiyasi” emas, balki adaptatsiya davrini nazarda tutuvchi yondashuv ekanini anglatadi.

Ikkinchisi, xizmatlar bozori hisoblanib, xizmatlar sohasidagi majburiyatlar, ayniqsa, moliya, telekommunikatsiya, logistika va professional xizmatlar segmentida, mamlakatimiz iqtisodiyotining o‘rta va uzoq muddatli raqobatbardoshligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Kelishuvlarda mahalliy regulyator vakolatlarini saqlab qolgan holda bozorga kirishni ochishga harakat qilingan.

Uchinchisi, siyosiy ishonch. Yirik savdo hamkorlari bilan kelishuvlar O‘zbekistonning JSTga qo‘shilish jarayoni “qaytarib bo‘lmas” bosqichga kirganini xalqaro hamjamiyatga aniq signal sifatida namoyon qildi.

2025-yil yakuniga kelib, faqat bitta ikki tomonlama muzokaraning ochiq qolgani jarayonning zaif nuqtasi emas, balki aksincha, uning deyarli tugallanganini ko‘rsatadi. Xalqaro amaliyotda aynan oxirgi muzokaralar eng murakkab bo‘ladi, chunki ular ko‘p hollarda bozorga kirishdan tashqari masalalar — geosiyosiy yoki institutsional omillar bilan bog‘liq.

O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish bo‘yicha bosh muzokarachisi Azizbek Urinov ta‘kidlaganidek, ayrim protokollarning kechikishi bozorga kirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan sabablardan tufayli yuz bermogda. Bu esa mamlakatimizning texnik tayyorgarligi emas, balki muzokaralar siklining tashqi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Muhim jihat shundaki, O‘zbekiston ushbu qolgan muzokarani ham 2026-yilning birinchi choragida yakunlash imkoniyatiga ega ekanini ochiq bildirmogda.

Ikki tomonlama kelishuvlar qanchalik muhim bo‘lmasin, JSTga a‘zolikning huquqiy asosi ko‘p tomonlama formatda — Ishchi guruh (Working Party) doirasida shakllantiriladi. Ishchi guruh hisoboti nomzod mamlakatning butun savdo rejimini kompleks baholaydi va a‘zolikning “yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi.

Yakunlangan yilda O‘zbekiston ushbu frontda ham sezilarli ilgari lashga erishdi. Jumladan, 200 dan ortiq yozma savollarga javob berildi, 1200 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizadan o‘tkazildi, 65 ta rasmiy bildirishnoma JST kotibiyatiga taqdim etildi.

Bu raqamlar faqat miqdoriy ko‘rsatkich emas. Ular mamlakatimizning institutsional xotirasi, texnik salohiyati va regulyator shaffofligining oshganini anglatadi.

2026-yil arafasida Azizbek Urinov tomonidan bildirilgan “beixtiyor sekinlashish xavfi” haqidagi bayonot xalqaro iqtisodiy doiralarda katta qiziqish uyg‘otdi. Bu xavfni ikki xil talqin qilish mumkin.

Birinchi talqin — institutsional realizm. JST ishchi guruhlari muayyan protseduralar asosida ishlaydi va ayrim a‘zo davlatlar tomonidan berilayotgan qo‘shimcha savollar jarayonni sun‘iy ravishda uzaytirishi mumkin.

Ikkinchi talqin — muzokaraviy signal. Bu bayonot orqali O‘zbekiston a‘zo davlatlarga jarayonni asossiz chekiktirmaslik, faktlarga tayanish va siyosiy irodani hisobga olish zarurligini eslatmogda.

Muhimi, O‘zbekiston bu xavfni bahona sifatida emas, balki ochiq muloqot uchun signal sifatida ilgari suraypti. Bu yondashuv JST an‘analariga to‘liq mos keladi.

JSTga qo‘shilish jarayoni ko‘pincha tashqi savdo tariflari bilan bog‘lab talqin qilinadi.



Aslida, a‘zolikning eng chuqur ta‘sirini ichki regulyator muhit orqali namoyon bo‘ladi. 2025-yilda qabul qilingan 30 ta normativ-huquqiy hujjat aynan shu nuqtayi nazardan baholanishi lozim.

Mazkur hujjatlar mazmunan uchta asosiy yo‘nalishni qamrab oldi. Birinchisi, savdoni tartibga solish va bojxona ma‘muriyatchiligi, ikkinchisi, raqobat va savdo himoya vositalari, uchinchisi, intellektual mulk, texnik reglamentlar va SPS/TBT tizimlaridir. Bu yerda gap faqat JST talablarini “rasman bajarish” haqida emas, balki davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta formatlash haqida bormogda.

JSTning Savdoni yengillashtrish to‘g‘risidagi bitimi (TFA) doirasida amalga oshirilgan islohotlar biz uchun strategik ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimiz geografik jihatdan dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan davlat sifatida tashqi savdo xarajatlarga ayniqsa sezgir.

2025-yilda qabul qilingan qarorlar, ya‘ni elektron deklaratsiyalashni kengaytirish, risklarni boshqarish tizimini joriy etish,

transzit operatsiyalarini soddalashtirish qisqa muddatda eksport-import operatsiyalarining narxini pasaytirishga xizmat qiladi. Bu esa raqobatbardoshlikni tariflar emas, logistika samaradorligi orqali oshirish imkonini beradi.

JST doirasida eksport bojlari alohida sezgir masala hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu instrument tarixan ichki bozorni himoya qilish va qo‘shimcha qayta ishlashni rag‘batlantirish vositasi sifatida qo‘llangan.

2025-yildagi islohotlar bu sohada evolyutsion yondashuv tanlanganini ko‘rsatdi. Ya‘ni eksport bojlarini keskin bekor qilish emas, balki ularni JST qoidalariga muvofiq shaffof va prognoz qilinadigan mexanizmga aylantirish. Bu yondashuv ichki ishlab chiqaruvchilar uchun adaptatsiya imkonini saqlab qolgan holda xalqaro majburiyatlarni bajarishga yo‘naltirilgan.

Intellektual mulkni himoya qilish va texnik reglamentlar sohasidagi islohotlar JSTga qo‘shilish kontekstida ko‘pincha ikkinchi darajali masala sifatida qabul qilinadi. Aslida, aynan shu sohalar iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat segmentlariga chiqish imkoniyatini belgilaydi.

2025-yilda patent va mualliflik huquqi tizimi yangilandi, texnik reglamentlar xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirildi, SPS va TBT tizimlarida institutsional mas‘uliyat aniq belgilab berildi. Bu islohotlar eksportni faqat hajm jihatdan emas, sifat jihatdan ham diversifikatsiya qilish uchun zamin yaratadi.

JSTga a‘zolik iqtisodiy taraqqiyotning avtomatik kafolati emas. U imkoniyatlar va cheklolvar to‘plamini taklif etuvchi institutsional platforma. Biz uchun a‘zolikdan keyingi davrda kamida uchta asosiy senariyni ko‘rib chiqish mumkin. Birinchisi, faol integratsiya va eksport diversifikatsiyasi (optimistik). Bu senariyda biz JST a‘zoligidan strategik instrument sifatida foydalanamiz.

Asosiy xususiyatlar sanoat va xizmatlar eksportida yangi bozorlarga chiqish, xorijiy investitsiyalar oqimining oshishi, milliy kompaniyalarning global qiymat janjirlariga qo‘shilishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur ssenariyning amalga oshishi uchun raqobat siyosati va sud tizimining samarali ishlashi, davlat korxonalarining bozor tamoyillari asosida faoliyat yuritishi, eksportni

bosqichma-bosqich islohotlar aynan shu ssenariyni oldini olishga qaratilgan.

O‘tgan yilda O‘zbekiston JSTga qo‘shilish yo‘lida texnik, institutsional va siyosiy jihatdan tarixiy burilish nuqtasiga yetdi. 2026-yil bu jarayonni huquqiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash, a‘zolikdan keyingi davrga tayyorgarlik ko‘rish yili bo‘ladi.

Agar 2025-yil JSTga qo‘shilish jarayonida siyosiy va texnik burilish yili bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil ushbu jarayonni huquqiy va institutsional jihatdan yakunlash yili sifatida tarixga kirishi mumkin. Bu yerda gap yangi konsepsiyalar yoki muzokara formatlari haqida emas, balki allaqachon kelishib olingan majburiyatlarni aniq, izchil va o‘z vaqtida mustahkamlash haqida bormogda.

Rasmiy rejalarga ko‘ra, 2026-yilda O‘zbekiston oldida to‘rtta strategik vazifa turadi. Bular — qolgan yagona ikki tomonlama muzokarani yakunlash; Ishchi guruh doirasida ko‘p tomonlama muzokaralarni tugatish; Working Party Report’ni to‘liq shakllantirish; Milliy qonunchilikni qabul qilingan barcha majburiyatlarga muvofiqlashtirish hisoblanadi.

Bu vazifalarning har biri texnik ko‘rinishida bo‘lsa-da, amalda yuqori darajadagi siyosiy

qilish” bosqichi sifatida talqin qilinadi. Biroq mamlakatimiz misolida a‘zolikdan keyingi davrni faqat majburiyatlar ijrochisi sifatida tasavvur qilish yetarli emas.

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, xalqaro muzokaralarda namoyon etilgan muvozanatli va qat‘iy pozitsiya, shuningdek, davlat siyosatidagi yangicha siyosiy ritorika O‘zbekistonning jahon savdo tizimida o‘z o‘mini aniq belgilab olayotganini yaqqol ko‘rsatmogda. Bu jarayonlar mamlakatimizning passiv kuzatuvchi emas, balki Jahon savdo tashkiloti qoidalarini faol va manfaatlaridan kelib chiqqan holda talqin qiladigan, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar ovozi va manfaatlarini ifoda etuvchi, eng muhimi, mintaqaviy integratsiya bilan global savdo tizimi o‘rtasida mustahkam va ishonchli “ko‘pri” vazifasini bajara oladigan ta‘sirchan a‘zo bo‘lishga intilayotganini anglatadi.

Bu rol, ayniqsa, Markaziy Osiyo uchun strategik jihatdan o‘ta dolzarb. Sababi bugungi kunda mintaqada JST qoidalarini to‘liq va tizimli ravishda institutsional darajada ilgari sura oladigan barqaror iqtisodiy markaz hali shakllanmagan. Ana shu sharoitda O‘zbekiston ushbu bo‘shliqni to‘ldirish, mintaqada savdo qoidalarini va yondashuvlarini muvofiqlashtiruvchi tayanch davlatga aylinish salohiyatiga ega ekanini namoyon etmogda.

JSTga a‘zo bo‘lish masalasi faqat milliy iqtisodiyotimiz doirasida cheklanib qolmaydi. U butun Markaziy Osiyo savdo arxitekturasiga keng qamrovli, multiplikativ ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muhim omil sifatida maydonga chiqmogda. Aynan shu jarayonda O‘zbekiston “normativ eksportyor” sifatida maydonga chiqishi mumkin. Ya‘ni mamlakatimiz o‘z qonunchilik bazasi, savdo tartib-taomillari va institutsional amaliyoti orqali nafaqat ichki bozorni, balki qo‘shni mamlakatlar bozorlarini ham xalqaro standartlarga moslashtirishga ta‘sir ko‘rsatadigan markazga aylinish ehtimoli yuqori.

Iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan eng katta xato JSTga a‘zolikni islohotlar jarayonining yakuni sifatida qabul qilishdir. Aslida, a‘zolik raqobatni institutsionalashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta belgilash, xususiy sektor uchun teng o‘yin qoidalarini ta‘minlash kabi jarayonlarning boshlanish nuqtasi hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ishlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz rahbariyati JSTga a‘zolikni maqsad emas, instrument sifatida qabul qilmogda. Bu esa xalqaro amaliyotda kam uchraydigan, ammo eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.

2025-yil O‘zbekistonning JSTga qo‘shilish tarixida mazmun, natija va ishonch yili bo‘ldi. Muzokaralarning deyarli to‘liq yakunlanishi, qonunchilikning tizimli moslashuvi va yuqori darajadagi siyosiy qo‘llab-quvvatlash jarayonni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi.



muvofiqlashuv va institutsional intizomni talab qiladi.

Joriy yilda qabul qilinishi rejalashtirilgan 29 ta normativ-huquqiy hujjat soni emas, balki ularning mazmuni va ijro mexanizmi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

2026-yil mart oyida o‘tishi rejalashtirilgan JSTning 14-Vazirlar konferensiyasi biz uchun ramziy va amaliy ahamiyatga ega. Ko‘plab a‘zo davlatlar, jumladan, O‘zbekiston rahbariyati aynan shu sanagacha jarayonni yakunlash imkonligini ta‘kidlab kelmogda.

Jahon savdo tashkiloti konsensus asosida ishlaydigan tuzilma hisoblanadi. Bu uning kuchli jihati bilan birga zaif nuqtasidir. Ayrim a‘zo davlatlar qo‘shimcha savollar berish orqali vaqt yutsa, siyosiy yoki geoiqtisodiy manfaatlarini ilgari sursa, nomzod mamlakatdan JST doirasida mavjud bo‘liq ekani ta‘kidlandi. Bu esa institutsional charchoq (process fatigue) xavfini keltirib chiqaradi.

Haqli savol tug‘iladi: iqtisodiy nuqtayi nazardan kechikish nimaga olib keladi? JSTga a‘zolikning kechikishi iqtisodiy falokat emas, ammo u imkoniyatlar qiymatini oshiradi.

Asosiy oqibatlarida ayrim eksportyorlar uchun noaniqlik saqlanib qoladi, investorlar “kutish pozitsiyasi”ni tanlashi mumkin, davlat islohotlarining ichki qo‘llab-quvvatlanishi susayishi xavfi paydo bo‘ladi.

Biroq shuni ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston 2025-2026-yillarda amalga oshirgan islohotlari bilan ushbu xavflarni minimallashtirish imkoniga ega.

Muhim strategik jihat shundaki, bizda JSTga qo‘shilish uchun real muqobil mavjud emas. Mintaqaviy yoki ikki tomonlama savdo kelishuvlari JST a‘zoligining o‘mini bosa olmaydi. Shu bois, mamlakatimizning pozitsiyasi mantiqiy va izchil.

Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish ko‘p hollarda davlatlar uchun “qoidalarini qabul

2026-yil 8-yanvar, 4-son

Yangi O‘zbekistonning ochiq, pragmatik va konstruktiv tashqi siyosatida yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va xalq diplomatiyasiga tayanilgan barqaror hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan. Zero, Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan navbatdagi Murojaatnomasida ham bu jihat alohida qayd etildi: “Yaqin qo‘shnilarimiz bilan ko‘p asrlik do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz”.



Zokir OBIDOV,
Birodar shaharlar
alyansi raisi

Tezkor globallashtirish sharoitida davlatlar o‘rtasidagi rasmiy hamkorlik bilan bir qatorda, shaharlar va hududlararo do‘stona munosabatlar ham alohida strategik ahamiyat kasb etib borayotir. Ayniqsa, xalqlar o‘rtasidagi ishonch, o‘zaro anglashuv va madaniy yaqinlikni mustahkamlashda shaharlar diplomatiyasi muhim o‘rin tutadi.

Shu ma‘noda, 2025-yil 7-may kuni Birodar shaharlar alyansi nodavlat notijorat tashkilotining Adliya vazirligi tomonidan rasman ro‘yxatdan o‘tkazilgani tashqi siyosatimizdagi



BIRODAR SHAHARLAR O‘RTASIDAGI DO‘STLIK DIPLOMATIYASI

yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va xalq diplomatiyasining maqtig‘iy davomi bo‘ldi. Alyansning asosiy maqsidi O‘zbekiston va xorijiy davlatlar shaharlari o‘rtasidagi hamkorlikni institutsional asosda rivojlantirish, o‘zaro do‘stlik va muloqotni mustahkamlashdan iborat. Ushbu platforma ta‘lim, madaniyat, iqtisodiyot, turizm, ekologiya, raqamli innovatsiyalar va yoshlar siyosati kabi sohalarda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Aslida, “Birodar shaharlar” fenomeni tarixi olisga borib taqaladi. Qadimdan shaharlar aholisi o‘rtasida madaniy, ijtimoiy va savdo aloqalarini rivojlantirish maqsadida birodarlik munosabatlari o‘rnatilgan. Zamonaviy davrda esa mazkur tushuncha ilk bor o‘tgan asr o‘rtalarida tilga olingan.

Uning bevosita O‘zbekiston bilan bog‘liq jihatiga to‘xtalsak, 1963-yili Skoppe shahrida kuchli zilzila yuz berganida butun dunyo, jumladan, O‘zbekiston ham jabranganlarga yordam qo‘lini cho‘zdi. Oradan uch yil o‘tib, 1966-yil 26-aprelda Toshkentda ro‘y bergan zilziladan so‘ng esa Makedoniya xalqi yurtimizga amaliy yordam ko‘rsatib, insonparvarlik va birdamlik namunasini namoyon etdi. Ana shu o‘zaro yordam va ishonch asosida 1967-yilda Toshkent va Skoppe shaharlari rasman “birodar shaharlar” deb e‘lon qilindi. Bu hamkorlik O‘zbekiston tarixidagi ilk birodar shaharlar aloqasi sifatida muhrlanib, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik ramziga aylandi. Shundan so‘ng ushbu shaharlar o‘rtasidagi



madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalari kengayib, yangi bosqichga ko‘tarildi.

Ayni paytda O‘zbekiston shahar va hududlari 80 ga yaqin davlatning shaharlari bilan birodarlik munosabatlarini o‘rnatgan. Alyansning asosiy vazifasi esa ushbu hamkorlikning shunchaki qog‘ozda qolib ketmay, amaliy mazmun bilan boyitilishini ta‘minlashdan iborat. Xususan,

birodar shaharlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada faol rivojlantirish, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy yo‘nalishlarda aniq loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, yangi birodar shaharlar munosabatlarini yo‘lga qo‘yish masalalariga tashkilot tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugun O‘zbekistonning qator shaharlari xalqaro maydonda faol va ishonchli hamkor sifatida

keng e‘tirof etilmoqda. Xususan, Toshkent va Sietl shaharlari o‘rtasida birodarlik munosabatlari 1973-yilda o‘rnatilgan. O‘tgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy, savdo, madaniy va gumanitar sohalarda samarali hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Ayniqsa, 2023-yilda mazkur birodarlik aloqalarining 50 yilligi munosabati bilan “Sietl — Toshkent birodar shaharlar assotsiatsiyasi” delegatsiyasining Toshkentga tashrif doirasida qator mazmunli uchrashuvlar va madaniy tadbirlar tashkil etilgani ushbu hamkorlikning yuksak darajasini yaqqol namoyon etdi.

Shu bilan birga, Toshkent — Shanxay, Buxoro — Bonn, Toshkent — Berlin, Samarqand — Yurmala, Termiz — Dabash, Xiva — Versal kabi birodar shaharlar o‘rtasidagi aloqalar ham bugun izchil mustahkamlanib, o‘zaro ishonch, tajriba almashuvi va qo‘shma tashabbuslarga asoslangan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu kabi munosabatlar O‘zbekiston shaharlarining xalqaro nufuzini oshirish bilan bir qatorda, madaniy muloqotni kengaytirish hamda barqaror taraqqiyotga ham xizmat qilmoqda.

Hozir O‘zbekiston shaharlarining xalqaro hamkorlik geografiyasi izchil kengayib bormoqda. Xususan, 2022-yilda Samarqand shahri va Yaponiyaning qadimiy Nara shahri o‘rtasida birodarlik munosabatlari o‘rnatilgani bu yo‘nalishdagi hamkorlikning yana bir yorqin namunasi bo‘ldi. Ikki shahar ham boy tarixiy va madaniy merosga ega. Ushbu aloqalar madaniy merosni asrash, turizmni rivojlantirish hamda

ilm-fan sohasida tajriba almashishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning ta‘lim, infratuzilma, tibbiyot va “yashil iqtisodiyot” sohasidagi ilg‘or tajribasi O‘zbekiston shaharlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Birodar shaharlar alyansi tashkil etilganiga hali ko‘p bo‘lmagan esa-da, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan birga, xalqaro maydonda ham faol ishtirok etmoqda. O‘tgan qisqa muddatda tashkilotimiz tomonidan 20 dan ortiq (jumladan, 4 ta xorijiy tashkilot bilan) anglashuv memorandumlari imzolandi. Hamkor tashkilotlar bilan 50 ga yaqin davra suhbatlari, ijodiy kechalar, xorijdagi vatandoshlar bilan uchrashuvlar, konsert, xalqaro tashkilotlar vakillari bilan muloqotlar tashkil etildi. Shu bilan birga, qator taqdimotlar o‘tkazildi, xalqaro anjumanlarda qatnashildi, xorijga safarlar uyushtirildi.

Jumladan, 2025-yil yoz oyida Xitoyda bo‘lib o‘tgan Xalq diplomatiyasi va birodarlashgan shaharlar forumida alyansning ishtiroki O‘zbekistonning ushbu yo‘nalishdagi salohiyatini namoyon etdi. Forum doirasida Xitoyning Sichuan provinsiyasi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari do‘stlik jamiyatlari bilan anglashuv memorandumlari imzolandi.

2025-yil oktyabr oyida esa Xitoyning yana bir sanoat va innovatsiyalar shahri — Lu bilan hamkorlik aloqalari kengaytirildi. Birodar shaharlar alyansi, Andijon va Samarqand shaharlari vakillaridan iborat delegatsiya Lu shahrining iqtisodiy va sanoat salohiyati bilan tanishish maqsadida qator muhim obyektlarda bo‘ldi va ularning tajribasini yaqindan o‘rgandi. Yakunda tashkilotimiz va Lu shahri ma‘muriyati hamda Samarqand — Lu, Andijon — Lu o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatilib, tomonlar o‘zaro tajriba almashish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Ozbayjonda 2025-yilning noyabr oyida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo mamlakatlar nodavlat notijorat tashkilotlarining birdamlik forumida Birodar shaharlar alyansi ham faol ishtirok etdi. Forum doirasida turkiy davlatlar NNTlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish, madaniy, ijtimoiy va gumanitar loyihalarni qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, yoshlarni jamoatchilik faoliyatiga keng jalb etish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari bo‘yicha fikr almashildi. Qolaversa, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini yanada mustahkamlash, milliy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, turkiy davlatlarga a‘zo mamlakatlarning shahar va hududlari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Birodar shaharlar alyansi yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining xalqchil, amaliy va barqaror ifodasi sifatida shaharlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlab, xalqlar orasida tinchlik, o‘zaro hurmat va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Shaharlar o‘rtasidagi do‘stlik faqat hamkorlik emas, balki kelajak avlodlar uchun ishonchli taraqqiyot poydevoridir. O‘zbekiston esa bu yo‘lda izchil va qat‘iy qadam tashlamqda.

Quyoshli o‘lkamizda pishib yetilgan har bir meva betakror ta‘mi, xushbo‘yli va darmon dorilarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu holat, avvalo, tabiatning o‘zi bizga in‘om etgan qulay iqlim va serunum zamin bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, Samarqand tuprog‘ida bog‘dorchilik nafaqat xo‘jalik tarmog‘i, balki odatiy kundalik yumush sifatida ham keng yoyilgan. Sohibqiron Amir Temur faxr bilan “Mening bir bog‘im borki, u Buxorodan Samarqandgachadir”, deya ta‘kidlagani bejiz emas.

O‘zbekiston brendi: TABIIY MAHSULOT VA RAQOBATBARDOSH EKSPORT

Bugun Samarqand viloyati mirishkorlari dehqonchilik an‘analari zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda ichki va tashqi bozorni arzon, sifatlili hamda ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda mamlakatda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmokda. Viloyatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham muttasil oshirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar bajarilmoqda.

Xususan, bugungi kunda hududdagi aholi va dehqon xo‘jaliklarining 13,2 ming gektar, fermer xo‘jaliklarining esa 29,8 ming gektar mevali bog‘i mavjud. E‘tiborlisi, fermer xo‘jaliklariga tegishli bog‘larning 59 foizi, ya‘ni 17,7 ming gektari intensiv mevazorlardan iborat. Ularda zamonaviy agrotexnologiyalar keng joriy etilmoqda. Jumladan, 15 ming gektar maydonda tomlachilab yetq‘orish texnologiyalari qo‘llanib, suv tejamlorligi va hosildorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda, — deydi samarqandlik bog‘bon Bobur Haydarov. — Sohadagi islohotlar fermer va mirishkorlar uchun ham huquqiy mezon va intilishlar garovi bo‘lmoqda. Prezidentimizning 2024-yil 30-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat yo‘nalishida beriladigan subsidiyalar belgilandi. Bu bilan dehqonlarga yangi imkoniyatlar berildi va yangi tashabbuslarga asos hozirlandi. Endi hududlarda shu yo‘nalishda ko‘chat yetishtirish, namunaviy bog‘lar, intensiv mevazor va uzumzorlar barpo etish, “in vitro” usulida nihollar tayyorlash ko‘lami kengaymoqda. Shu asosda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish hajmi oshadi, narxi arzonlashadi.

Bugun bozor munosabatlarga o‘tish jarayonida meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ustuvor yo‘nalishlar sifatida katta e‘tibor qaratilmoqda. Zero, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotish hisobiga mamlakat valyuta tushumining sezilarli qismi shakllanayotgani ham sohani tubdan isloh qilish va jadal rivojlantirishning ustuvorligidan

dalolat beradi. Albatta, bugun dunyoda organik mahsulotlarga talab o‘tib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 1 gektar maydonda yetishtirilgan paxta xomashyosiga nisbatan uzumdan 7, gilosdan 6 va yong‘oqdan 5 baravar ko‘p daromad olish imkoniyati mavjud.

Islohotlar natijasida avval faqat bayram dasturxonlarini bezab turgan noz-ne‘matlar hozir aholining kundalik xarid mahsulotlari qatoriga kirib, oilaviy ratsionni boyitib bormoqda. Viloyatda oziq-ovqat sanoati yo‘nalishidagi dasturlar ham samara bermoqda: 2024-2025-yillarda 6,5 ming gektar sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va tokzorlar barpo etildi. Jumladan, 2025-yil bahorda 2300, kuzda 2000 gektar sanoatlashgan bog‘ va tokzorlar tashkil qilindi. Masalan, Bulung‘urda 710, Jomboyda 151, Ishitxonda 139, Kattaqo‘rg‘onda 354, Nurobodda 231, Payariqda 283, Urgutda 148, Qo‘shrabotda 184 gektar sanoatlashgan intensiv bog‘ va tokzor barpo etildi.

Joriy yilda ham soha rivojini jadal davom ettirish maqsadida 1,4 ming gektar sanoatlashgan intensiv mevali bog‘ va 1,3 ming gektar sanoatlashgan uzumzor barpo etish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan samarasiz va yaroqsiz 1600 gektar bog‘ va 2600 gektar tokzor rekonstruksiya qilinib, ular o‘rnida yangi sanoatlashgan intensiv bog‘-tokzorlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Shu tarzda viloyatdagi meva-sabzavotchilik va oziq-ovqat sanoati rivojlanishi zamonaviy texnologiyalar, islohotlar va fermerlarni qo‘llab-quvvatlash choralarini bilan uyg‘unlashtirib, xalqimizning turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Hududda uzumchilik sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda Samarqand viloyatida 55,5 ming gektar uzumzor mavjud. Shundan 45 ming gektari fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalariga, 10,5 ming gektari esa aholi tomorqalariga to‘g‘ri keladi. Fermer va qishloq xo‘jaligi korxonalariga qarashli uzumzorlarning 29,4 ming gektari hosilli uzumzorlar. Ushbu raqamlar ortida zamonaviy yondashuv, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, eng muhimi, yerga mehr qo‘ygan mehnatkash insonlar zohmati mujassam. Samarqand bog‘lari bugun nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki oziq-ovqat xavfsizligi



va eksport salohiyatini oshirishda ham muhim omilga aylanmoqda. Binobarin, bugun uzum yetishtiruvchilar ham davlat e‘tiborida. Ularga berilgan imtiyozlar va imkoniyatlar soha rivojiga xizmat qilmoqda.

— 20 yildan buyon uzumchilik bilan shug‘ullanaman. Hozir 20 gektar tokzorim bor. 2024-yili uzum ko‘chatlarini ko‘tarish maqsadida shpaler o‘rnatish uchun subsidiya olgan edik. Bu jarayon ortidan hosildorligimiz qariyb ikki barobar ortdi. Hozir uzum yetishtirib, ham ichki bozorga, ham eksportga jo‘natyapmiz, — deydi Samarqand tumanidagi fermer Ahmad G‘ulomov.

Hududda uzumchilikni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar, davlat qo‘llab-quvvatlovi va fermerlar mehnati hamjihatlikda namoyon bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat hosildorlikni oshirish, balki viloyat iqtisodiyoti va eksport salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash imkonini mavjudligi uning qiymat zanjirini oshirishda muhim omildir. Shu bilan birga, mazali mevalarimizdan turli quvvatdagi yaxna ichimliklar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish orqali ham import o‘imini bosuvchi mahsulotlar tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu maqsadda Samarqandda bugun 20 dan ortiq meva-sabzavotchilik agroklasteri faoliyat yuritmoqda. Ular orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari innovatsion, resurs tejaydigan usullarda saqlanib, qayta ishlanadigan namunaviy korxonalar tashkil etilmoqda. Shu bilan birga, yildan yilga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash hamda ichki va tashqi bozorga xaridorgir tayyor mahsulotlar yetkazib berishga qaratilgan loyihalar ham samarali yo‘lga qo‘yilmoqda.

Albatta, ushbu chora-tadbirlar, mahalliy meva-sabzavot va uzum sanoatini rivojlantirish harakati orqali mahsulot hajmi va sifati yanada oshadi hamda aholi uchun yangi ish o‘rinlari ochiladi. Shuningdek, jahon bozorida jozibador brendlarimiz orqali eksport salohiyatimizni namoyon etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

Izhor

Mana shu yurtning farzandi, oddiy dehqon sifatida 2025-yil haqida o‘ylab, faqat quvonchli onlar yodingda tushdi. Bu tuyg‘u beixtiyor qo‘lga qalam olib, dil izhorimni boshqalarga ham yetkazish ishtiyoqini uyg‘otdi.



Do‘styor MAVLONOV,
“Koson” ko‘p tarmoqli fermer
xo‘jaligi rahbari,
“Do‘stlik” ordeni sohibi

Ishonch bilan ayta olamanki, baxtli kunlarni nafaqat men, butun xalqimiz boshidan kechirmoqda. Bugun barcha soha rivojlanib, katta yutuqlar, yangi marralar qo‘lga kiritilmoqda. Nafaqat shahar va tuman markazlari, chekka-chekka ovullar ham o‘bod maskanga aylanayapti. Odamlarning yashash tarzi yaxshilanib, hayotdan roziligi ortmoqda.

Qishloq xo‘jaligida bir necha yillardan beri mehnat qilib kelaman. Suyagim dalada qotgan. Dastlab xo‘jalikda brigadir bo‘lib ishladim. Keyinchalik fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshlandi. Sohadan xabardor kishi borki, shu ishga qo‘l urdi. Lekin bu quruq gap bilan bo‘lmadi. Yer bilan tillashish oson emas. Men ham bu borada tajriba to‘plab, 1996-yilda alohida fermer sifatida ish boshladim. O‘sha yili 40 gektar yer berishdi. Yarmiga paxta, yarmiga g‘alla ekadigan bo‘ldim. Reja belgilangan, bajarish kerak. Shunchaki qarab turgan biroq qilib bermaydi. Yeng shimarib, traktorga o‘tirib yer haydadik.



DEHQONNING YELKASIGA QUYOSH TEGDI

Ariq qazidik. U paytlari texnika ham tugatilgan xo‘jaliklardan qolgan, eski edi. Bir kun foydalanask, uch kun buzilib yotardi. Boshlagan ishimizni oxiriga yetkazguncha bir ahvolga kelib qolaridik. Birinchi yil rejani zo‘rg‘a bajardim. Ammo hisob-kitob qilib ko‘rsam, xarajat daromaddan ko‘p ekan. Boshqalardan so‘rasam, ahvol hammadam birdek.

Keyingi yillarda bir oz yaxshilangandek bo‘ldi. Lekin rosti, hech birimiz ikki bo‘lmadi. Deyarli ko‘pchilik qarz bo‘lib qoldi. Reja bajarilmaganidan ayrimlar umuman ko‘rinish bermay qo‘ydi. Yarim yo‘lda tashlab ketish oson emasdi. Dalasiga ko‘p mehnati singanlar sabr qilishga majbur bo‘ldi. Ishchilarga pul o‘rniga g‘o‘zapoya, g‘alla beradigan bo‘lib qolishdi. Men qatori fermerlikni boshlaganlarning ko‘pchiligi tashlab ketdi. Asta-sekin odamlarda bu yo‘nalish o‘zini oqlamay qoladi degan fikr paydo bo‘la boshladi. Baribir tugatilib ketsa kerak degan taxmin ham yo‘q emasdi. Bu shubha-gumonlar yaqin yillarda yo‘qqa chiqdi.

So‘nggi yillarda sohaga jiddiy e‘tibor qaratila boshlandi. Yangi loyihalar joriy etilib, qator imtiyozlar berildi. Jumladan, har bir fermerning sharoiti, yerining holati o‘rganib chiqildi. Kerakli yordam ajratildi. Suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, sug‘orish tizimi yaxshilandi. Yangi texnika olib kelindi. Agroteknik vositalar tubdan o‘zgardi. Natijada ishimizga baraka kirdi. Harakatimizga yarasha mablag‘ topadigan bo‘ldik.

O‘tgan ikki yildan beri o‘shishda yanada yangi bosqichga chiqdik. Qishloq xo‘jaligiga xorijiy texnologiyalar kirib keldi. Bu rivojlanish uchun katta qadam bo‘ldi. Rostini aytam, biz kabi fermer-dehqonlarning yelkasiga o‘ftob tegdi. Nega degan savolga o‘zim misolimda aytib bersam. Fermer xo‘jaligimda 94 gektar yer bor. Har yili 40 gektarga g‘alla, 40 gektar paxta ekamiz. Qolganiga mevali daraxtlar ekilgan. 2024-yili 40 gektar paxtadan jami 700 million so‘mdan ziyod daromad topgandik. 2025-yilda Xitoy mutaxassislari bilan hamkorlikda paxta yetishtirdik. Buning samarasida 40 gektar joyning o‘zidan 2 milliard so‘mga yaqin daromad olindi. Bu deyarli bir yarim barobar o‘shish degani. Bir so‘z bilan aytganda, kam xarajat sarflab, ko‘p daromad topdik.

O‘ylab qararasam, shu paytgacha katta imkoniyatlardan foydalana olmagam ekanmiz. Faqat bir usuldan nariga o‘tmay, o‘zimni o‘zimiz charchatibmiz. Albatta, bunga yangi O‘zbekistonda sohaga katta e‘tibor tufayli yo‘l ochildi. Endi xorijiy tajriba nafaqat paxta, balki boshqa o‘simliklarni bilan yetishtirishda qo‘llaniladi. Bu xirmonimizni donga to‘ldirib, bozorni o‘bdi qiladi.

Men uchun 2025-yil omadli bo‘ldi. Xususan, qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlandim. Shu kun hayotimdagi eng quvonchli kunga aylandi. Ko‘zimda sevinch yoshlari bilan xushxabarni qarshi oldim.

63 yoshga kirdim. Ko‘p yillik mehnatim uchun yuksak rag‘bat bo‘ldi. Bundan katta kuch oldim. Endi yanada mas‘uliyat bilan mehnat qilaman. Maqsadim — elimiz dasturxonni to‘kin, xirmonlarimiz donga to‘lsin.



Inson qalbidagi Vatanni sevish tuygʻusi shunchaki tugʻma instinkt emas, balki yillar davomida sayqallanib, jamiyatdagi voqealar rivoji bilan boyib boradigan murakkab ijtimoiy-ruhiy fenomendir.



SIDQIDILAN HARAKAT tamoyili

YURT TARAQQIYOTI HAQIDA OʻYLAR EKANMIZ, BIRDAMLIKDA GAP KOʻPLIGINI ANGLAYMIZ



Jonibek ALIJONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

Biz yashayotgan oʻzgarishlar davri har birimizdan oʻza zimni sevishning yangicha, yanada pragmatik va samara keltiruvchi usullarini talab qilayotgani bor gap. Bugungi qahramon qoʻlida qalam, kompyuter sichqonchasi yoki laboratoriya uskunalarini tutgan, oʻz bilimi bilan millat shaʼnini dunyo arenasiga olib chiqayotgan zakovat egasidir. Ayni paytda vatanparvarlik tushunchasiga “Vatanim menga nima berdi?” degan isteʼmolchilik kayfiyati bilan emas, balki “Men Vatanim rivojiga qanday hissa qoʻshayman?” degan daxldorlik hissi bilan yondashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Inson qalbidagi Vatanni sevish tuygʻusi shunchaki tugʻma instinkt emas, balki yillar davomida sayqallanib, jamiyatdagi voqealar rivoji bilan boyib boradigan murakkab ijtimoiy-ruhiy fenomendir. Biz koʻpincha buyuk oʻzgarishlarni yuqori minbarlardan kutishga oʻrganib qolganimiz, biroq aslida haqiqiy evrilishlar har bir insonning ongu shuurida, dunyoqarashi va hayotga munosabatida sodir boʻladi. Masalan, oddiy dehqonning oʻz yeriga mehr bilan urugʻ qadab, unib chiqqan har bir nihol bilan tillashishi hamda hosilini isrof qilmay el dasturxoniga yetkazishi ham vatanparvarlikning bir koʻrinishidir. Qachonki har bir kasb egasi oʻz faoliyatini yuksak qadriyat darajasida bilsa, ish joyini halollik va masʼuliyat dargohiga aylantirsa, ana oʻshanda mamlakatda mislsiz yuksalish jarayoni boshlanadi.

Zamonaviy vatanparvarlik, avvalo, oʻz kasbining ustasi boʻlish va har qanday ishni vijdonan, mukammal bajarishda aks etadi. Oddiy oʻqituvchining chekka qishloqdagi maktabda fidoyilik bilan dars oʻtishi, shifokorning bemor hayoti uchun soʻnggi daqiqagacha kurashishi yoki quruvchining bino poydevorini javobgarlik hissi bilan qoʻyishi ayni paytda eng yuksak vatanparvarlik namunasidir. Jamiyatda oʻz ishiga masʼuliyatsiz yondashish, vaqtni behuda sarflash yoki korripsiyaga yoʻl qoʻyish Vatanga xiyonat bilan barobar baholanishi lozim. Chunki sifatsiz bajarilgan har bir ish mamlakat taraqqiyotini ortga suradi va xalq farovonligiga soya soladi. Bugunning qahramoni oʻz sohasidagi muammolardan nolimaydigan, aksincha, ularga yechim topish uchun tinmay izlanadigan, “muammo bu — imkoniyat” tamoyili asosida yashaydigan insondir. Aynan shunday kishilar jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi, motori vazifasini oʻtaydi va boshqalarni ham oʻz ortidan ergashtirishga qodir boʻladi.

Shu oʻrinda bugun dunyo minbarlarida, xalqaro sport arenalarda yoki nufuzli ilm-fan dargohlarida

Oʻzbekiston bayrogʻini baland koʻtarayotgan yurtdoshlarimizning jasorati va matonati haqida alohida toʻxtalib oʻtish joiz. Ular minglab chaqirim olisda boʻlishiga qaramay, qalbida Vatani ishq joʻsh urgan holda butun dunyoga oʻzbek xalqining buyuk salohiyatga ega ekanini amalda isbotlab kelmoqda. Vatan nomini xalqaro miqyosda ulugʻlayotgan yoshlarimizga yana bir bor nazar tashlar ekanimiz, ularning muvaffaqiyati ortida koʻzga koʻrinmas, ammo togʻdek tayanch boʻlib turgan yana bir qatlam — ota-onalar, ustoz va murabbiylarning zahmati yonganini eʼtirof etmaslik adolatsizlik boʻladi. Champion sportchining onasi tunlari bedor boʻlib qilgan duosi, iqtidorli olimiga ilm sirlarini oʻrgatgan oʻqituvchining sabr-toqati, yosh sanʼatkorini qoʻllab-quvvatlagan oddiy xalqning olqishi — bularning barchasi gʻalabaning ajralmas tarkibiy qismlari. Demak, gʻoliblik shohsupasida turgan birgina inson timsolida aslida butun millatning, millionlab yuraklarning orzu-umidi va mehnati mujassam.

Aynan mana shu nuqtada vatanparvarlikning biz ilgʻamagan, ammo juda kuchli va taʼsirchan yangi qirrasini namoyon boʻladi. Dunyoning

oʻz yurti haqida ijobiy fikr bildirish, uning madaniyati va tarixini targʻib qilish, turli asossiz xurujlarga qarshi maʼrifat bilan javob qaytarish ham bugungi ziyolining burchidir. Yozilayotgan har bir sharh, joylanayotgan surat yoki videolavha ortida Vatan obroʻsi turganini his qilish, virtual olamda ham yuksak madaniyat namunasini koʻrsatish oʻzligimizni hurmat qilish demakdir. Globallashuv davrida milliy oʻzlikni saqlab qolish masalasi ham vatanparvarlikning oʻzagi. Zero, oʻz tili, tarixi va madaniyatini unutgan xalq kelajakka dadil qadam tashlay olmaydi.

Oʻzbek tilining boy imkoniyatlarini dunyoga namoyish etish, internet tarmogʻidagi milliy kontentni sifatli va ishonchli maʼlumotlar bilan boyitish, Vikipediya kabi xalqaro platformalarda Oʻzbekiston haqidagi maqolalarni koʻpaytirish — bularning barchasi bugungi ziyolining vijdoni oldidagi vazifasi boʻlishi kerak. Biz dunyoga faqat xomashyo sotish bilan emas, balki Navoiyning hikmatlari, Ulugʻbekning zakovati, Ibn Sinoning tibbiyotiga oid merosi va bugungi yoshlarning innovatsion gʻoyalari bilan tanilishimiz maqsadga muvofiq.



narigi chekkasida, shaxmat taxtasi ustida dona surayotgan grossmeyerimiz gʻalaba qozonganda Oʻzbekistonning eng chekka qishlogʻida yashovchi oddiy insonning koʻziga yosh kelishi, qalbida cheksiz gʻurur tuyishi shunchaki hissiyot emas, balki buyuk birdamlikning, milliy oʻzlikni anglashning yuksak koʻrinishidir. Biz shu oʻrinda “gʻoyibdan qoʻllab-quvvatlash” fenomeniga chuqurroq yondashsak, bu shunchaki passiv kuzatuvchilik emas, balki faol energetik almashinuv jarayoni ekanini anglab yetamiz. Siz oʻz uyingizda oʻtirib, ekran orqali vatandoshingizga muxlislik qilayotganingizda, ich-ichingizdan unga kuch-quvvat tilaganingizda, mazkur musbat energiya masofalarni yengib oʻtib, oʻsha insonga ruhiy koʻmak boʻlishi hayotiy haqiqatlariga mos keladi.

Mazkur jarayonda koʻolib chiqqan qahramon va uning yutugʻidan quvongan vatandosh oʻrtasida koʻrinmas, ammo uzilmas ruhiy rishta mavjud boʻlib, bu rishta ikki tomonni ham teng darajada vatanparvar maqomiga koʻtaradi. Sababi shundaki, Vatan nomini dunyoga tanitayotgan insonning maqsadi yurt bayrogʻini yuksaltirish boʻlsa, uni gʻoyibdan qoʻllab-quvvatlab, yutuqlaridan oʻzini qoʻyarga joy topolmay quvonayotgan odamning maqsadi ham aynan shu niyat bilan mustarakdir. Demak, vatanparvarlik faqat bevosita harakat qiluvchida emas, balki shu harakatga ruhiy quvvat beruvchi, millat yutugʻini oʻzining shaxsiy yutugʻi deb qabul qiluvchi insonda ham birdek joʻsh uradi. Bugungi globallashuv sharoitida vatanparvarlik axborot maydonida ham oʻz aksini topmoqda. Yaʼni internet tarmogʻida, ijtimoiy platformalarda

Shu bilan birga, zamonaviy vatanparvarlik innovatsion fikrlashni, eskilik sarqitlaridan voz kechib, yangilikka intilishni taqozo etadi. Prezidentimiz ilgari surayotgan Uchinchi Renessans gʻoyasi ham aynan ilm-fan, taʼlim va innovatsiyalar orqali mamlakatni yangi bosqichga olib chiqishni koʻzda tutadi va bunda yoshlarning oʻrni beqiyos. Biz ajdodlarimiz bilan faxrlanish bilan cheklanib qolmay, ularga munosib voris boʻlish uchun oʻzimiz ham nimanidir kashf etishimiz va kelajak avlodlarga meros qoldirishimiz lozim. Tarixiy xotira bizga kuch berishi, ammo u bizni orqaga tortuvchi emas, balki oldinga undovchi mashʼala vazifasini oʻtashi dardkor. Bizning eng katta qurolimiz — bilim. Chunki zamonaviy dunyoda davlatlarning qudrati armiyasi yoki yer osti boyliklari bilan emas, balki intellektual salohiyat, yuqori texnologiyalarni yaratish va joriy etish qobiliyati bilan oʻlchanmoqda.

Yana bir muhim jihat milliy brendlarni yaratish va qoʻllab-quvvatlash orqali iqtisodiy vatanparvarlikni namoyon etishdir. Yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotni sotib olish va mahalliy tadbirkorga ishonch bildirish orqali mamlakat ichidagi pul aylanmasini ragʻbatlantiramiz, yangi ish oʻrinlari ochilishiga hissa qoʻshamiz. Chet el yorligʻi yopishtirilgan mahsulotdan koʻra, oʻzimizning tuproqda yetishtirilgan, oʻzimizning ustalar qoʻlidan chiqqan mahsulotni afzal bilish shunchaki tanlov emas, balki milliy gʻurur masalasidir. Tadbirkorlarimiz ham, oʻz navbatida, “Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan” degan yozuv sifat belgisi boʻlishi uchun bor mahoratini ishga



solishi, halollikni birlamchi mezon qilib olishi lozim.

Kreativ yondashsak, bugun tejamlorlik va ekologik madaniyat ham vatanparvarlikning bir koʻrinishi sifatida baholanishi mumkin. Chunki suv, elektr energiyasi va tabiiy resurslarni asrab-avaylash kelajak avlod oldidagi masʼuliyatimizni anglatadi. Eʼtiborsiz qoldirilgan joʻmrakdan oqayotgan suvni toʻxtatib qoʻygan inson, garchi bu kichik ish boʻlib koʻrinsa-da, aslida, mamlakat boyligini asrashga hissa qoʻshayotgan vatanparvardir. Atrof-muhitni toza saqlash, daraxt ekish, ekologik muammolarga befarq boʻlmaslik — ona tabiatga muhabbatning amaldagi isboti. Vatan tuprogʻini oʻpib, uni koʻzga surtish qanchalik muqaddas boʻlsa, shu tuproqni chiqindilardan tozalash, obod qilish ham shunchalik savobli va sharaflil ish ekanini anglash vaqti keldi, nazarimda. Shuningdek, huquqiy madaniyatni yuksaltirish vatanparvarlikning eng oliy koʻrinishlaridan biri boʻlib, qayerda qonun hukmron boʻlsa, oʻsha yerda adolat, rivojlanish va xalq roziligi taʼminlanadi. Yoʻl harakati qoidalariga rioya qilishdan tortib, soliqlarni oʻz vaqtida toʻlashgacha, atrof-muhitni ifloslantirmaslikdan jamoat mulkini asrashgacha boʻlgan barcha saʼy-harakat zamirida Vatanga hurmat yotadi. Tartib-intizomga oʻrgangan, oʻz huquq va majburiyatlarini chuqur anglagan jamiyatni hech qanday tashqi kuch yenga olmaydi va bunday jamiyat ichdan yemirilishga ham mahkum etilmaydi.

Qolaversa, bugun xorijda yashayotgan, mehnat qilayotgan yoki tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan mustahkam aloqalar oʻrnatish, ularni “oltin fond”imiz deb bilish siyosati ham vatanparvarlikning yangi uqflarini ochmoqda. Ular qayerda boʻlishidan qatʼi nazar, Oʻzbekistonning bir boʻlagi ekanini his qilishi, oʻz tajribasi va sarmoyasini Vatan ravnaqiga yoʻnaltirishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda. Biz “miya oqimi”dan qoʻrqmasligimiz, aksincha, “miya aylanishi” jarayonidan unumli foydalanishimiz, dunyo tajribasini oʻzlashtirgan kadrlar salohiyatini milliy manfaatlariga yoʻnaltirishimiz zarur.

Shu bilan birga, mehr-oqibat, saxovat va koʻmakka muhtojlarga yordam qoʻlini choʻzish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan fazilat boʻlib, bu ham vatanparvarlikning insoniy qiyofasini belgilaydi. Pandemiya davrida yoki turli tabiiy ofatlar paytida xalqimizning bir tanu bir jon boʻlib, qiynalanganlarga yordam bergani, hech kimni yolgʻizlatib qoʻymagani maʼnaviy ildizlarimiz naqadar chuqur ekanini yana bir bor isbotladi. Boyning kambagʻalga, kuchlining ojizga, yoshning kekxa avlodga gʻamxoʻrlilik qilishi jamiyatdagi ijtimoiy adolat va barqarorlikni taʼminlaydi. Haqiqiy vatanparvar oʻzining toʻq va farovon yashashi bilan kifoyalanmaydi, balki yon-atrofidagi insonlarning ham hayotini yaxshilashga, ularning koʻzida quvonch koʻrishga intiladi. Bu birdamlik, hamjihatlik bizning eng katta boyligimiz va uni koʻz qorachigʻidek asrash har birimizning burchimiz.

Vatanparvarlik shaxsiy manfaatlardan voz kechib, umummilliy maqsadlar sari intilishdir. Baʼzan Vatan manfaati yoʻlida oʻz halovatidan, vaqtdan, kerak boʻlsa, mol-mulkidan voz kechishga toʻgʻri keladi va bunday fidoyilik faqat mard odamlarning qoʻlidan keladi. Biz hammamiz katta kemandagi yoʻlovchilarimiz; bu kema manzilga eson-omon yetib borishi uchun hamma birdek harakat qilishi, bir yoqadan bosh chiqarishi talab etiladi. Yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik ruhini shakllantirishda quruq pand-nasihatlardan koʻra, jonli ibrat va shaxsiy namuna koʻproq foyda berishi tajribada isbotlangan. Agar ota oʻz ishini sidqidildan bajarsa, ona oilasini va mahallasini ozoda saqlasa, farzand ham tabiiy ravishda shu muhitdan andoza oladi va kelajakda yurt koriga yaraydigan inson boʻlib voyaga yetadi.

Vatanparvarlik turgʻun holat emas, balki doimiy harakat va rivojlanish jarayonidir. U har tong uygʻonganimizda “Bugun men Vatanim uchun nima qila olaman?” degan savol bilan boshlanib, kun davomida qilingan xayrli amallar bilan davom etadi. Xalqaro maydonda yurt sharafini himoya qilayotgan sportchimizdan tortib, uning gʻalabasini koʻrib koʻziga yosh olgan kekxa otaxongacha, murakkab operatsiyali bajarayotgan jarohatdan tortib, koʻchalarimizni supurayotgan obodonlashtirish xodimgacha — barchamizni yagona, buyuk tuygʻu birlashtirib turadi. Bu — Vatanga muhabbat, uning buguni va ertasi uchun javobgarlik hissi.

Xulosamizni yanada teranlashtiradigan boʻlsak, vatanparvarlik — shiorlar aytish musobaqasi emas, balki kundalik mayda detalarlada namoyon boʻluvchi ulkan muhabbat. Koʻchada yotgan chiqindini olib qutiga tashlashdan tortib, davlat ahamiyatiga molik ulkan loyihalarni amalga oshirishgacha boʻlgan barcha jarayon yagona janrining halsqalaridir. Agar biz buyuk kelajakni orzu qilsak, bugunimizni, har bir daqiqamizni mazmunli oʻtkazishimiz, oʻzimizga “Men bugun kechagi kunga nisbatan nimanidir yaxshiroq qildimmi?” degan savolni berishdan toʻxtamasligimiz lozim. Biz bir tanu bir jon boʻlib, Prezidentimiz atrofida jipslashib, dadil odimasak, koʻzlagan yuksak marralarimizga, albatta, yetamiz va dunyo xaritasida yangi Oʻzbekiston nomini oltin harflar bilan muhrlaymiz. Zero, tomirida buyuk ajdodlar qoni oqayotgan, qalbi egzu maqsadlarga toʻla xalqni hech qanday kuch toʻxtatmaydi va uning yoʻli hamisha yorugʻ boʻlishi muqarrar.



“XORAZM – QORAQALPOGʻISTON” turizm halqasi

Xorazm va Qoraqalpogʻistondagi arxeologik yodgorliklar boʻylab yirik turizm halqasi tashkil etiladi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va xalqimizga yoʻllagan Murojaatnomasida maʼlum qildi.

Amudaryoning ikki sohilidagi bu diyorning oʻtmishi, maʼnaviyati va yashash tarzi bir daraxtning qoʻsh shoxi kabi tutashib ketgan, ularni bir-biridan ajratib tasavvur etish imkonisiz.

Tuproqqalʼa Afrigʻiylar sulolasi hukmronligi davrida Xorazmshohlar davlatining maʼmuriy, harbiy, diniy markazi boʻlgan. Qalʼa devorlari va saroy meʼmorligi oʻsha davrda yuksak sivilizatsiya boʻlganini tasdiqlaydi. Oʻsha davr Afrigʻiylar madaniyatida Kushon podshohligi bilan bogʻliqlik, aholi dunyoqarashida hinduizm, buddaviylik, zardushtiylilik va qadimgi yunon diniy gʻoyalarning taʼsiri seziladi. Tuproqqalʼada qadimgi Xorazm yozuvi topilgan. Yana bir misol, Ayoqqalʼadir. Beruniy tumanidagi ushbu tarixiy makon oʻz davrida qamalgacha chidamli mudofaa inshooti boʻlgan. U hozir sayyohlarga tarix, muhandislik va harbiy meʼmorlikning ajoyib namunasini taqdim etadi.

Qoraqalpogʻiston hududida joylashgan yana bir muhim tarixiy markaz — Mizdakxon nekropolidir. Mazkur majmua Xoʻjayli tumanida joylashgan boʻlib, u sayyohlarda faqatgina ziyorat emas, balki madaniy tadqiqot manbai sifatida ham katta qiziqish uygʻotadi.

Beruniy tumanidagi Sulton



Uvays qadamjosi islom dinida katta ahamiyatga ega ziyoratgoh. Bu maskan butun Markaziy Osiyo boʻylab ziyoratchilarni jalb etish imkoniyatiga ega. Shuningdek, Beruniy tumanidagi yana bir tarixiy poytaxt shahar — Oqshaxonqalʼa ham gʻoyat qiziqarli maskanlardir.

Keyingi yillardagi oʻzgarishlardan koʻraypmiz, turizm yoʻnalishida Qoraqalpogʻistonning tabiiy salohiyati ham katta. Masalan, Axchakoʻl — toza



Qonaqbay TURDIBAYEV,
Qoraqalpogʻ davlat universiteti
professori, filologiya fanlari
doktori

havo, tabiiy suv havzasi, quyosh va plyaj infratuzilmasiga ega hudud. Shu jihatdan u sayyohlar uchun juda qiziqarli. Ushbu hududda ekoturizm va sogʻlomlashtirish turizmi (wellness tourism) yoʻnalishlari joriy etilsa, qoʻshni davlatlardan ham sayyohlar oqimi koʻpayadi deb oʻylaymiz.

Turizmga iqtisodiyotning drayveri deb qaraladi. Chunki u bilan birga xizmat

koʻrsatish, transport, oziq-ovqat sanoati, hunarmandchilik, madaniy merosni saqlash kabi sohalar rivojlanadi. Prezidentimiz ilgari surayotgan tashabbus “Xorazm — Qoraqalpogʻiston” turizm halqasi koʻplab iqtisodiy-ijtimoiy masalalarga yechim